

INTERNET MAKONIDA SENZURA TURLARI VA ULARNING ZAMONAVIY KO'RINISHLARI

Choriyeva Charos Burhonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi mutaxassisligi magistranti.

charoschorieva2703@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19800262>

Annotatsiya. Ushbu tezis raqamli muhitda internet senzurasining zamonaviy shakllari va ularning ishlash mexanizmlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda senzura tushunchasining evolutsiyasi hamda davlatlar va yirik texnologik platformalar tomonidan axborot oqimini nazorat qilishning dolzarb tendensiyalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot doirasida internet senzurasining asosiy turlari – texnik, platformaviy, iqtisodiy-huquqiy hamda psixologik shakllari tizimli ravishda tasniflanadi. Shuningdek, ushbu mexanizmlarning qo'llanish amaliyoti va ularning ijtimoiy-huquqiy oqibatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy senzuraning ko'p qatlamli hamda murakkab tizimga aylanganini va uning axborot olish hamda ifoda erkinligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Yakunda raqamli makonda shaffoflik, hisobdorlik va muvozanatli huquqiy tartibga solish mexanizmlarini joriy etish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: internet senzura, raqamli muhit, axborot nazorati, kontent moderatsiyasi, algoritmik senzura, o'z-o'zini senzura, so'z erkinligi.

Аннотация. Данная тезисная работа посвящена анализу современных форм интернет-цензуры в цифровой среде и механизмов их функционирования.

Рассматривается эволюция понятия цензуры, а также актуальные тенденции контроля информационных потоков со стороны государств и крупных технологических платформ. В рамках исследования систематически классифицируются основные виды интернет-цензуры: техническая, платформенная, экономико-правовая и психологическая.

Также анализируются практики применения данных механизмов и их социально-правовые последствия. Результаты исследования подтверждают, что современная цензура представляет собой многоуровневую и сложную систему, оказывающую значительное влияние на право получения информации и свободу выражения мнений. В заключение обосновывается необходимость внедрения механизмов прозрачности, подотчётности и сбалансированного правового регулирования в цифровой среде.

Ключевые слова: интернет-цензура, цифровая среда, контроль информации, модерация контента, алгоритмическая цензура, самоцензура, свобода слова.

Abstract. This thesis analyzes modern forms of internet censorship in the digital environment and the mechanisms of their operation. It examines the evolution of the concept of censorship as well as current trends in information flow control by states and major technology platforms. The study systematically classifies the main types of internet censorship: technical, platform-based, economic-legal, and psychological. It also analyzes the practical implementation of these mechanisms and their socio-legal consequences. The results indicate that modern censorship has evolved into a multi-layered and complex system that significantly affects the right to access information and freedom of expression. Finally, the study emphasizes the necessity of implementing transparency, accountability, and balanced regulatory mechanisms in the digital environment.

Keywords: *internet censorship, digital environment, information control, content moderation, algorithmic censorship, self-censorship, freedom of speech.*

Kirish. Bugungi kunda internet nafaqat axborot almashish vositasi, balki global siyosiy va ijtimoiy maydonga aylandi. Dunyo aholisining qariyb 5,5 milliard (67% dan ortig'i) internetdan faol foydalanadi¹. Bu esa raqamli makonni inson hayotining ajralmas qismiga aylantirgan. Biroq, davlatlar va yirik korporatsiyalar tomonidan axborot oqimini nazorat qilish istagi internetda senzuraning keltirib chiqardi. Senzura - bu shaxslar, hukumatlar yoki tashkilotlar tomonidan zararli, nomaqbul yoki maxfiy deb hisoblangan ma'lumotlarga kirishni cheklash amaliyotidir². Dastlabki senzura shakllari qadimgi Yunoniston va Rim davridayoq mavjud bo'lgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar davrida u mutlaqo yangi tus oldi.

XXI asrda senzura nafaqat kuchayib, balki yangi - algoritmik va iqtisodiy shakllarda namoyon bo'la boshladi. So'nggi yillarda global miqyosda internet erkinligi keskin pasayib bormoqda. Turli tadqiqotlarga ko'ra, dunyo mamlakatlarining 70% dan ortig'i internetda qandaydir ko'rinishdagi senzuraning qo'llaydi³. Xitoyning "Buyuk Xitoy devori" (Great Firewall), Rossiyaning "Yagona reestr" tizimi, Yevropa Ittifoqining "GDPR" qoidalari va AQShdagi ijtimoiy tarmoqlarning kontent moderatsiyasi - bularning barchasi zamonaviy senzuraning turli qirralaridir⁴.

Tezisning maqsadi - raqamli muhitdagi senzuraning asosiy turlarini tasniflash va ularning mazmunini ochib berishdir. Ushbu tadqiqot doirasida texnik, platformaviy, iqtisodiy-huquqiy va psixologik senzura turlari alohida tahlil qilinadi, shuningdek, ularning zamonaviy jamiyatga ta'siri masalalari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism. Raqamli makonda axborot oqimini nazorat qilish murakkab tizim bo'lib, u bir necha darajalarda amalga oshiriladi. Mazkur jarayonning eng fundamental bosqichi axborot uzatishning texnik kanallariga to'sqinlik qilishdir. Quyida internet senzurasining infratuzilmaviy cheklovlar bilan bog'liq asosiy turlari va ularning ishlash mexanizmlari tahlil qilinadi.

1. Texnik darajadagi senzura - Ushbu turdagi senzura eng qo'pol va to'g'ridan-to'g'ri taqiqlash usuli hisoblanadi. Texnik senzura - internet-provayderlar orqali IP-manzillar, portlar yoki DNS so'rovlari darajasida filtrlash va muayyan kontentga kirishni to'sish mexanizmidir.

Zamonaviy internet senzurasining asosini aynan infratuzilmaviy cheklovlar tashkil etadi.

• IP-blokirovka: Muayyan veb-saytlarning IP-manzillarini butun mamlakat darajasida yopib qo'yish. Bu usul davlat tomonidan boshqariladigan filtrlash tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Xitoyning "Buyuk Xitoy devori" tizimi bunga eng yorqin misol bo'lib, u DNS so'rovlarini filtrlash va muayyan kontentga kirishni to'sish orqali ishlaydi. Eron misolida esa davlat tomonidan boshqariladigan markazlashtirilgan tizim barcha so'rovlarni tekshirib, taqiqlangan kontentga kirishni IP-darajasida bloklaydi⁵.

¹Internet World Stats, 2024. URL: <https://www.internetworldstats.com/stats.htm>

²Gosztanyi G. Censorship from Plato to Social Media: The Complexity of Social Media's Content Regulation and Moderation Practices. – Budapest: Springer, 2023. – P. 15.

³Freedom on the Net 2025. – Freedom House, 2025. URL: <https://freedomhouse.org/report/freedom-net>

⁴Wairimu S., Lenz J. A Survey of Internet Censorship and its Measurement: Methodology, Trends, and Challenges // Computers & Security (Elsevier). arXiv preprint arXiv:2502.14945, 2025. – P. 4-6.

⁵Stremlau N. Internet Shutdowns, Sovereignty, and the Postcolonial State in Africa // Global Policy, 2025. – Vol. 16(2). – P. 372-379. DOI: 10.1111/1758-5899.13483.

- DNS-filtrlash: Foydalanuvchi qidirayotgan domen nomini masalan, .com noto'g'ri manzilga yo'naltirish yoki bloklash. "DNS-poisoning" usuli yordamida foydalanuvchining so'rovlari yolg'on manzillarga masalan, 10.10.34.34 kabi xususiy IP-manzillarga yo'naltiriladi, natijada foydalanuvchi bloklangan saytga kira olmaydi. Bu usul tezkor va keng qamrovli bo'lib, butun bir domen zonasini bir vaqtning o'zida bloklash imkonini beradi⁶.

- Internet-shatdaun: Siyosiy beqarorlik yoki ommaviy namoyishlar paytida muayyan hududda internetni to'liq uzib qo'yish. Bu usul ko'pincha "favqulodda holat" yoki "ommaviy tartibsizliklar" sharoitida qo'llaniladi. *Access Now* tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Afrika qit'asidagi 15 ta davlatda 21 marta internet-shatdaun qayd etilgan bo'lsa, global miqyosda 2024-yil sentabridan boshlab 107 ta internetni o'chirish holati kuzatilgan⁷. Afg'onistonda Tolibon rejimi 2021-yildan beri to'rt marta internetni butunlay o'chirgan⁸. Eron esa 2025-yil iyun oyida "yashirin o'chirish" usulini qo'lladi - bunda global BGP marshrutlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, foydalanuvchilarning tashqi internetga ulanishi deyarli butunlay to'sib qo'yilgan. Zamonaviy internet-shatdaunlar tobora murakkablashib, "aqlli o'chirish" usullari - faqat ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarni bloklash keng qo'llanilmoqda.

2. Platforma darajasidagi senzura - Raqamli makonda senzuraning navbatdagi bosqichi platformalar darajasida amalga oshiriladi⁹. Bu yerda asosiy rol ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va qidiruv tizimlariga tegishli bo'lib, ular o'zlarining xizmat ko'rsatish shartlari va ichki siyosati asosida kontentni boshqaradi. Mazkur jarayon ko'pincha "kontent moderatsiyasi" deb atalsa-da, amalda u axborotning erkin tarqalishini cheklovchi vositaga aylanadi.

- Algoritmik senzura: Foydalanuvchining postlarini to'g'ridan-to'g'ri bloklamagan holda, uning qamrovini sun'iy ravishda pasaytirish. Ushbu usul yordamida platformalar "qoidalarni buzgan" yoki "nomaqbul fikr bildirgan" foydalanuvchini unga bildirmasdan cheklaydi¹⁰.

Foydalanuvchi o'z kontentini chop etilgan deb hisoblasa-da, aslida u boshqa foydalanuvchilarning tasmalarida ko'rinmaydi.

- Kontentni o'chirish: Platforma qoidalariga yoki davlat idoralarining rasmiy so'rovlariga binoan muayyan post, video yoki butun bir akkauntlarni butunlay olib tashlash. *Google*, *Meta* (Facebook, Instagram) va *X* (Twitter) kabi platformalar o'zlarining shaffoflik hisobotlarida (*Transparency Reports*) hukumat talabi bilan qancha kontent o'chirilganligini e'lon qilib boradi.

Bu ko'pincha "noqonuniy kontentga qarshi kurash" niqobi ostida siyosiy senzura vositasi sifatida qo'llaniladi¹¹.

- Kalit so'zlar bo'yicha filtrlash: "Taqiqlangan" so'zlar ishtirok etgan xabarlarning avtomatik tarzda chop etilmasligi yoki filtrlanishi¹².

⁶ O'sha manba.

⁷ Baum J., Van Rooyen M. Africa: Offline and Silenced - Africa's Quiet Rise of Internet Repression. – allAfrica.com / ISS Africa Tomorrow, 2025. [Elektron resurs]. URL: <https://allafrica.com/stories/202512190449.html>

⁸ The Taliban must restore internet access across Afghanistan now. – Access Now, 2025. [Elektron resurs]. URL: <https://www.accessnow.org/press-release/the-taliban-must-restore-internet-access-across-afghanistan/>

⁹ Gosztanyi G. Censorship from Plato to Social Media: The Complexity of Social Media's Content Regulation and Moderation Practices. – Budapest: Springer, 2023. – P. 45-48.

¹⁰ Content Moderation and the Future of Online Speech / K. Klonick (Ed.). – Yale Law Journal, 2024. [Elektron resurs]. URL: <https://www.yalelawjournal.org/>

¹¹ Google Transparency Report: Requests for Content Removal. – Google, 2025. [Elektron resurs]. URL: <https://transparencyreport.google.com/>

¹² Ng L. H. X. Keyword Censorship as a Tool of Information Control // Journal of Digital Law & Policy, 2025. – Vol. 4(1). – P. 22-35.

- Ba'zi mamlakatlarda siyosiy jihatdan “nozik” hisoblangan soʻzlar, iboralar yoki ramzlar “qora roʻyxatga” kiritilgan. Sunʻiy intellekt va neyron tarmoqlar yordamida ishlovchi ushbu filtrlar millisekundlar ichida axborotni tahlil qilib, uning ommaga yetib borishini toʻsib qoʻyadi.

3. Iqtisodiy va huquqiy senzura - Ushbu usul axborot yaratuvchilarga bevosita yoki bilvosita bosim oʻtkazishga qaratilgan boʻlib, zamonaviy tadqiqotlarda “iqtisodiy senzura” yoki “xususiy nutq boshqaruvi” sifatida tasniflanadi¹³. Bu bosqichda axborotni taqiqlashdan koʻra, uni yaratish va tarqatishni iqtisodiy jihatdan foydasiz qilish yoki huquqiy javobgarlik orqali cheklash asosiy oʻringa chiqadi.

- Demonetizatsiya: Siyosiy yoki tanqidiy materiallar eʼlon qiluvchi blogerlar va kontent yaratuvchilarni reklama daromadidan mahrum qilish orqali ularni jim qilish¹⁴. Bu usul yordamida platformalar “nomaqbul” yoki “munozarali” deb hisoblangan kontent mualliflarini iqtisodiy jihatdan zararsizlantirishga erishadi. Natijada, kontent yaratuvchisi moliyaviy yoʻqotishlardan qochish uchun oʻz chiqishlarini yumshatishga yoki mavzuni oʻzgartirishga majbur boʻladi¹⁵.

- Litsenziyalash talablari va huquqiy cheklovlar: Internet-nashrlarni davlat roʻyxatidan oʻtishga majburlash va murakkab litsenziyalash tizimi orqali ularning faoliyatini nazorat qilish.

Tuhmat, haqorat yoki milliy xavfsizlikka tahdid toʻgʻrisidagi qonunlar, shuningdek, mualliflik huquqini himoya qilish vositalari asosida kontentni sud orqali olib tashlash tizimi keng qoʻllaniladi¹⁶. Masalan, AQShda *Digital Millennium Copyright Act (DMCA)* mexanizmi mualliflik huquqi buzilgan materiallarni tezkor olib tashlash imkonini bersa, Xitoy kabi davlatlarda kontentni chop etishdan oldin tekshirish tizimi qonun bilan mustahkamlab qoʻyilgan¹⁷.

4. Yumshoq senzura va oʻz-oʻzini senzura qilish - Mazkur turdagi cheklovlar bevosita texnik bloklash emas, balki psixologik bosim va ijtimoiy muhit natijasidir. Bu zamonaviy internet senzurasining eng murakkab va aniqlash qiyin boʻlgan shakli hisoblanadi¹⁸.

- Trollar fabrikasi va kiber-bulling: Tanqidiy fikr bildirgan jurnalistlar, faollar yoki oddiy foydalanuvchilarga qarshi ommaviy nafrat kampaniyalarini uyushtirish orqali ularni toʻxtatish¹⁹.

Bu usul “qoʻrqitish va axborot manipulyatsiyasi” kategoriyasiga kiradi. Garchi bunday hujumlar koʻpincha rasmiy huquqiy asosga ega boʻlmasa-da, shaxsning ijtimoiy obroʻsiga putur yetkazish va ruhiy bosim oʻtkazish orqali uning faolligini soʻndiradi.

- Oʻz-oʻzini senzura qilish: Jurnalist yoki foydalanuvchining ehtimoliy huquqiy jazo, ishdan ayirilish yoki ijtimoiy tazyiqdan qoʻrqib, oʻzining haqiqiy fikr va qarashlarini oshkor etmasligi²⁰.

¹³ Gosztonyi G. *Censorship from Plato to Social Media: The Complexity of Social Media's Content Regulation and Moderation Practices*. – Budapest: Springer, 2023. – P. 62-65.

¹⁴ Roberts M. E. *Censorship, Surveillance, and Resistance: The Case of the Great Firewall of China*. – Princeton University Press, 2018. – P. 140.

¹⁵ *Demonetization and its Impact on Freedom of Expression*. – Electronic Frontier Foundation (EFF), 2024. [Elektron resurs]. URL: <https://www.eff.org/>

¹⁶ UNESCO. *World Trends in Freedom of Expression and Media Development: Global Report 2024/2025*. – Paris: UNESCO Publishing, 2025. – P. 88-92.

¹⁷ *Freedom on the Net 2025: The Repressive Power of Artificial Intelligence*. – Freedom House, 2025. [Elektron resurs]. URL: <https://freedomhouse.org/>

¹⁸ UNESCO. *World Trends in Freedom of Expression and Media Development: Global Report 2024/2025*. – Paris: UNESCO Publishing, 2025. – P. 112.

¹⁹ Wardle C., Derakhshan H. *Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making*. – Council of Europe, 2023. – P. 54-58.

²⁰ Stoycheff K. *Under Surveillance: Examining the Concept of Self-Censorship in the Digital Age // Journalism & Mass Communication Quarterly*, 2025. – Vol. 102(1). – P. 15-32.

Gergely Gosztonyi (2023) o‘z-o‘zini senzura raqamli makondagi senzuraning eng xavfli va “ko‘rinmas” turi sifatida ajratib ko‘rsatadi. Bu hodisa, ayniqsa, qat‘iy qonunchilikka va nazorat tizimiga ega mamlakatlarda keng tarqalgan bo‘lib, foydalanuvchilar hatto qonuniy va asosli fikrlarini ham bildirishdan o‘z-o‘zini tiyadi.

Xulosa. Internetda senzura faqatgina saytlarni bloklash bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda raqamli makondagi axborot to‘siqlari murakkab, ko‘p qatlamli va doimiy rivojlanib boruvchi tizimga aylangan. Ilmiy adabiyotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy internet senzurasini quyidagi asosiy turlarni o‘z ichiga oladi: siyosiy, texnik, huquqiy, iqtisodiy, korporativ (platforma), ijtimoiy va o‘z-o‘zini senzura. Ushbu turlarning har biri o‘ziga xos mexanizmlar, vositalar va maqsadlarga ega bo‘lib, ular foydalanuvchilarning axborot olish va tarqatish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

Texnik senzura - IP-blokirovka, DNS-filtrlash va internet-shatdaunlar orqali - eng qo‘pol va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiluvchi usul hisoblanadi. Ushbu tur ko‘pincha favqulodda holatlar, siyosiy beqarorlik yoki ommaviy norozilik namoyishlari paytida qo‘llaniladi. Biroq texnik cheklovlar nisbatan oson aniqlanadi va ularni aylanib o‘tish usullari (VPN, Tor, proksi-serverlar) mavjud.

Platforma darajasidagi senzura esa ancha murakkab va yashirin shaklda namoyon bo‘ladi.

Algoritmik senzura, kontentni o‘chirish va kalit so‘zlar bo‘yicha filtrlash orqali ijtimoiy tarmoqlar hamda qidiruv tizimlari foydalanuvchilarning faolligini ularga bildirmasdan cheklashi mumkin. Ushbu tur ayniqsa xavflidir, chunki foydalanuvchi o‘z kontenti nima sababdan boshqalarga ko‘rinmayotganini tushunmaydi va vaziyatni o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.

Iqtisodiy va huquqiy senzura axborot yaratuvchilarga bilvosita bosim o‘tkazadi.

Demonetizatsiya, litsenziyalash talablari va sud qarorlari orqali blogerlar, jurnalistlar va faollar moliyaviy yoki huquqiy jihatdan “jazolanishi” mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, o‘z-o‘zini senzura keltirib chiqaradi - foydalanuvchilar qatag‘on yoki jazolardan qo‘rqib, hatto qonuniy fikrlarini ham bildirishdan tiyladi.

Raqamli makonda so‘z erkinligini ta‘minlash va fuqarolarning axborot olish huquqini himoya qilish uchun ushbu senzura turlarini huquqiy jihatdan chegaralash hamda shaffof moderatsiya tizimini joriy etish zarur. Xususan, quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega:

- Shaffoflik tamoyilining joriy etilishi: Barcha platformalar o‘zlarining kontent moderatsiyasi bo‘yicha qarorlari, shu jumladan shadow banning holatlari haqida foydalanuvchilarni xabardor qilishi lozim.

- Apellyatsiya mexanizmlarining mavjudligi: Foydalanuvchilar platforma qarorlari ustidan shikoyat qilish va ularni qayta ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

- Mustaqil nazorat organlarining tashkil etilishi: Hukumat va korporatsiyalardan mustaqil bo‘lgan tuzilmalar kontent moderatsiyasining asosililigini tekshirishi lozim.

- Xalqaro hamkorlik va standartlarni ishlab chiqish: Turli davlatlar va platformalar o‘rtasida so‘z erkinligi va senzura chegaralari bo‘yicha umumiy tamoyillarni qabul qilish muhim.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, har bir davlat o‘z siyosiy tuzumi va ijtimoiy qadriyatlariga mos keladigan senzura modelini qo‘llaydi. Xitoyda “oldindan tekshirish” modeli amal qilsa, AQSh va boshqa demokratik mamlakatlarda “sud qarori asosidagi repressive” model qo‘llaniladi.

Yevropa Ittifoqi esa “uchinchi yo‘l”ni - Raqamli xizmatlar to‘g‘risidagi qonun (DSA) orqali shaffof moderatsiya va foydalanuvchi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan modelni taklif etmoqda.

Kelgusidagi tadqiqotlar quyidagi yo‘nalishlarga qaratilishi lozim: sun‘iy intellekt va algoritmik senzuraning rivojlanishi, senzuraning foydalanuvchi psixologiyasiga ta‘siri, shadow banning kabi yashirin senzura shakllarining ijtimoiy oqibatlarini hamda senzurani chetlab o‘tish texnologiyalarining samaradorligi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, senzura har doim ham salbiy hodisa sifatida baholanmasligi lozim. Bolalar pornografiyasiga, terrorizm targ‘ibotiga va ommaviy zo‘ravonlikka undovchi kontentga qarshi kurash - jamiyat manfaatlarini himoya qilishning zarur chorasidir.

Biroq asosiy muammo shundaki, ko‘p hollarda “xavfsizlik” va “tartib” niqobi ostida qonuniy siyosiy fikr, ijtimoiy tanqid va noroziliklar bostirilmoqda. Shu bois, senzura va so‘z erkinligi o‘rtasidagi oltin muvozanatni topish XXI asrning eng dolzarb va murakkab masalalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. World Trends in Freedom of Expression and Media Development: Global Report 2024/2025. - Paris: UNESCO Publishing, 2025. -112 p.
2. Freedom House. Freedom on the Net 2025: The Repressive Power of Artificial Intelligence [Elektron resurs]. - 2025. - URL: <https://freedomhouse.org/>.
3. Wardle C., Derakhshan H. Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making. - Strasbourg: Council of Europe, 2023. – 54-58 p.
4. Stoycheff E. Under Surveillance: Examining the Concept of Self-Censorship in the Digital Age // Journalism & Mass Communication Quarterly. - 2025. - Vol. 102, No. 1. - P. 15-32.
5. Google. Transparency Report: Requests for Content Removal [Elektron resurs]. - 2025. - URL: <https://transparencyreport.google.com/>.
6. Ng L. H. X. Keyword Censorship as a Tool of Information Control // Journal of Digital Law & Policy. - 2025. - Vol. 4, No. 1. - P. 22-35.
7. Gosztonyi G. Censorship from Plato to Social Media: The Complexity of Social Media's Content Regulation and Moderation Practices. - Budapest: Springer, 2023. - 200 p.
8. Roberts M. E. Censorship, Surveillance, and Resistance: The Case of the Great Firewall of China. - Princeton: Princeton University Press, 2018. - 140 p.
9. Electronic Frontier Foundation. Demonetization and its Impact on Freedom of Expression [Elektron resurs]. - 2024. - URL: <https://www.eff.org/>.
10. Baum J., Van Rooyen M. Africa: Offline and Silenced – Africa’s Quiet Rise of Internet Repression [Elektron resurs]. - 2025. - URL: <https://allafrica.com/stories/202512190449.html>
11. Access Now. The Taliban must restore internet access across Afghanistan now [Elektron resurs]. - 2025. - URL: <https://www.accessnow.org/press-release/the-taliban-must-restore-internet-access-across-afghanistan/>
12. Klonick K. (Ed.). Content Moderation and the Future of Online Speech // Yale Law Journal [Elektron resurs]. - 2024. - URL: <https://www.yalelawjournal.org/>
13. Stremlau N. Internet Shutdowns, Sovereignty, and the Postcolonial State in Africa // Global Policy. - 2025. - Vol. 16, No. 2. - P. 372–379. - DOI: 10.1111/1758-5899.13483.

14. Internet World Stats [Elektron resurs]. - 2024. - URL:
<https://www.internetworldstats.com/stats.htm>
15. Wairimu S., Lenz J. A Survey of Internet Censorship and its Measurement: Methodology, Trends, and Challenges // Computers & Security. - 2025. - arXiv:2502.14945. - P. 4–6.